



“Biznes uchun qulay tarzda Internetga ulaning” aksiyasini o‘tkazish shartlari

1. Aksiyaning umumiy shartlari

1.1. “Biznes uchun qulay tarzda Internetga ulaning” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - Aksiya) o‘tkazish muddati – 2022-yil 12-avgustdan 31 dekabrigacha.

1.2. Aksiyada tarmoq qamrovi zonasida joylashgan, texnik imkoniyati mavjud bo‘lgan barcha yuridik shaxslar, shuningdek, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lgan, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ishtirok etishi mumkin.

1.3. Aksiyada Internet tarmog‘iga ulanish xizmatlaridan, Uz-IX/TAS-IX, shuningdek, Ethernet texnologiyasi bo‘yicha yuqori tezlikdagi kanallar (keyingi o‘rinlarda – telekommunikatsiya xizmatlari)dan foydalanuvchi Abonentlar ishtirok etishi mumkin.

1.4. Aksiya doirasida abonentlarga VDSL, FTTB, GPON texnologiyalari bo‘yicha telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish davrida foydalanish uchun abonent qurilmalari taqdim etiladi, keyinchalik ushbu Aksiya shartlari bajarilgandan so‘ng, ularga egalik qilish huquqi Abonentga o‘tadi. “Abonent qurilmalari” deyilganda, telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun so‘nggi mil uskunalari nazarda tutiladi, jumladan: FTTB texnologiyasi uchun tarmoq marshrutizatorlari (router), PON texnologiyasi uchun GPON terminallari (to‘liq jamlamada ONT-modem, ATB abonent rozetkasi).

2. Aksiyada ishtirok etish shartlari

2.1. Aksiyada ishtirok etish uchun abonentlar har bir nuqta uchun abonent to‘lovi oyiga 300 000 so‘m va undan yuqori bo‘lgan Kompaniyaning telekommunikatsiya xizmatlariga ulanishi lozim.

2.2. Aksiya doirasida ulangan Abonentlar abonent qurilmasi taqdim etilgan kundan boshlab, 4 oy ichida tarif rejasini 300 000 so‘mdan kam bo‘lgan boshqa tarif rejasiga o‘zgartira olmaydilar.

2.3. Abonent qurilmasi taqdim etilganda (yangi ulanishda, texnologiyani o‘zgartirishda yoki mavjud abonentga qurilma taqdim etilganda), Abonent kelgusi hisob-kitob davri uchun abonent to‘lovi bo‘yicha avans to‘lovini, shuningdek, 45 000 so‘m miqdorida bir martalik ro‘yxatdan o‘tish to‘lovini amalga oshiradi.

2.4. Yangi ulanish paytida, ushbu shartlarning 2.3-bandiga muvofiq Aksiya doirasida ro‘yxatdan o‘tish to‘lovi to‘langanda, telekommunikatsiya xizmatlari tariflarining shartlarida (“Internetga keng polosali ulanish xizmatlari va tariflar narxnomasi”, “Ethernet texnologiyasi bo‘yicha yuqori tezlikdagi kanal xizmatlari tariflari” va boshqalar) ko‘zda tutilgan ro‘yxatdan o‘tish to‘lovi olinmaydi.

2.5. GPON texnologiyasi bo'yicha Internet tarmog'iga kirish xizmatlariga ulanganda va ko'rsatilgan manzil bo'yicha statsionar telefon aloqasi mavjud bo'lmaganda, Abonentga IP-telefoniya xizmatlariga ulanish tavsiya etiladi (tarif rejasining shartlariga muvofiq).

2.6. Abonentning Aksiyada ishtiroki davomida abonent to'lovi amalga oshirilishi majburiy shart hisoblanadi. Abonent qurilmasi taqdim etilgan kundan boshlab, Aksiya bo'yicha ulangan telekommunikatsiya xizmatlari faol holatda bo'lishi kerak (telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi ushbu shartlarning 2.2-bandida ko'rsatilgan muddat mobaynida bekor qilinmasligi kerak).

2.7. Amaldagi Abonentlar ulanish texnologiyasini boshqa texnologiyaga o'zgartirganda Aksiyada ishtirok etishlari mumkin:

ADSL, VDSLdan FTTBga, GPONGa;

FTTBdan GPONGa.

3. Abonent qurilmalarini taqdim etish tartibi

3.1. Mazkur Aksiya shartlarining 1.3, 2.1 va 2.3 bandlari bajarilganda, Abonentga telekommunikatsiya xizmatlari davrida foydalanish uchun abonent qurilmasi taqdim etiladi.

3.2. Abonent qurilmasi Abonentga Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi davrida abonent qurilmasi berilishi to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) asosida bepul taqdim etiladi. Abonent ushbu shartnomani imzolab, Aksiya shartlari bilan roziligini bildiradi.

3.3. Ushbu Aksiya doirasida abonent qurilmalari telekommunikatsiya xizmatlariga yangi ulanganda yoki ulanish texnologiyasi o'zgartirilganda (texnik imkoniyat mavjud bo'lganda) taqdim etiladi.

3.4. Ushbu shartlarning 2.2-bandi talablari bajarilgandan so'ng, abonent qurilmasi Abonentning mulkiga aylanadi. Kompaniyaning Billing tizimi tomonidan pul mablag'larining 4 kalendar oyi davomida abonent to'lovi uchun hisobdan yechilishi, Abonentga qurilmaga egalik qilish/egalik qilish huquqi o'tkazilganligi fakti hisoblanadi.

4. Abonent qurilmalarini almashtirish tartibi

4.1. Abonent qurilmasi nuqson bilan ishlab chiqarilganligi aniqlanganda, tashqi ta'sir ko'rsatilganligi izlari mavjud bo'lmaganda (zavod plombasining butunligi buzilganligi, korpusiga zarar yetkazilganligi, ichiga suyuqlik, hasharotlar tushganligi va hokazo) Abonent Shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab, olti oy davomida ushbu abonent qurilmasini almashtirish huquqiga ega. Bunday hollarda Abonent, birinchi navbatda, 1155 qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilib, abonent qurilmasi nosoz holda ekanligini tasdiqlovchi tegishli dalolatnomani tuzish uchun Kompaniyaning texnik mutaxassisini chaqirishi kerak. Ishdan chiqqan Abonent qurilmasining almashtirilishi Kompaniya omborxonasida shunga o'xshash konfiguratsiyaga ega qurilma mavjud bo'lganda, sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga uning nosoz holda ekanligini tasdiqlovchi dalolatnoma asosida to'liq jamlangan holda qaytarilganda amalga oshiriladi.

4.2. Abonentga bog'liq bo'lmagan tashqi yoki boshqa omillar ta'sirida qurilma shikastlanganligi faktlari aniqlanganda, Abonent qurilmasini 4.1-bandda

ko'rsatilgan muddat davomida almashtirishga ruxsat beriladi. Zarurat tug'ilganda, filialning B2B abonentlar bilan ishlovchi xodim tomonidan ushbu shartlarning 7.4-bandi talablari buzilganligi holatlarini istisno qilish uchun texnik ekspertiza xulosasi talab qilinishi mumkin. Texnik ekspertiza ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli huquqlarga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi, texnik ekspertiza o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlar Abonent tomonidan qoplanadi. Qolgan barcha hollarda qurilma almashtirilmaydi, bunda Abonentning barcha majburiyatlari o'zgarishsiz qoladi.

4.3. Abonent tomonidan avval sotib olingan va GPON texnologiyasi bo'yicha telekommunikatsiya xizmatlariga ulangan abonentning o'z qurilmasi ishdan chiqqanda, abonent qurilmasi ushbu Aksiya doirasida taqdim etilishi mumkin.

5. Abonent qurilmalarini qaytarib berish tartibi

5.1. Abonentga taqdim etilgan abonent qurilmasi Kompaniyaga tegishli bo'lib, Abonent tomonidan Aksiya shartlari buzilgan hollarda Kompaniya Abonent bilan imzolangan Shartnomani, shuningdek, Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda – Xizmat ko'rsatilishi to'g'risidagi shartnoma)ni, abonent qurilmasini qaytarib berish sharti bilan, o'rnatilgan tartibda bekor qilishga haqli.

5.2. Shartnoma, shuningdek, Xizmat ko'rsatilishi to'g'risidagi shartnoma ixtiyoriy ravishda Abonent tashabbusiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

5.3. Tomonlardan birining tashabbusiga ko'ra 2.2-bandda nazarda tutilgan shartlar bajarilgunga qadar Shartnoma bekor qilinganda, Abonent taqdim etilgan abonent qurilmasini uning tabiiy eskirganini hisobga olgan holda, to'liq jamlangan va soz holatda qaytarib berishga majbur.

5.4. Abonent qurilmasining qaytarilishi Abonent telekommunikatsiya xizmatlaridan ixtiyoriy ravishda voz kechgan vaqtdan boshlab yoki Operator Abonent tomonidan Aksiya shartlari buzilganligini aniqlagan vaqtdan boshlab, bir oy ichida amalga oshirilishi lozim.

5.5. Abonent qurilmasi Kompaniya ofisida B2B abonentlar bilan ishlovchi xodimga qaytarib beriladi. Abonent qurilmasini qaytarib berish uchun ushbu qurilma to'liq jamlangan holatda bo'lishi kerak. Qurilma qaytarib berilganda Abonentga tegishli Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi taqdim etiladi.

5.6. Agar abonent qurilmasi ushbu moddaning 5.4-bandida belgilangan muddatda qaytarilmasa, qurilmani qaytarish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq abonent ro'yxatga olingan joydagi tumanlararo xo'jalik sudi orqali amalga oshiriladi.

6. Abonent qurilmasi yo'qolgan yoki ishdan chiqqan hollarda uning narxini qoplash tartibi

6.1. Abonent tomonidan ushbu shartlarning 7.4-bandida belgilangan talablarga amal qilinmaganlik natijasida abonent qurilmasi jismoniy shikastlanishi sababli, 2.2-bandda ko'rsatilgan muddatda abonent qurilmasi ishlamay qolganda, yo'qolganda yoki to'liq jamlanmada (avval rasmiylashtirilgan Mas'uliyat bilan saqlash uchun berilgan telekommunikatsiya qurilmasini topshirish-qabul qilish

dalolatnomasida ko'rsatilgan ro'yxatga muvofiq) qaytarilmagan hollarda Abonent taqdim etilgan qurilmaning to'liq narxini qoplab beradi.

6.2. Abonent qurilmasiga yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun Abonent sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga murojaat qilishi kerak. To'lov amalga oshirilgandan so'ng, Abonent xohishiga ko'ra, ushbu Aksiya shartlarining 2-bandida belgilangan tartibda telekommunikatsiya xizmatlaridan kelgusida foydalanish uchun boshqa abonent qurilmasi taqdim etilishi mumkin (omborxonada mavjud bo'lganda) yoki Shartnoma, shuningdek, Xizmat ko'rsatilishi to'g'risidagi shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7. Aksiyaning boshqa shartlari

7.1. Ushbu Aksiya doirasida taqdim etiladigan abonent qurilmalarining soni cheklangan bo'lib, qurilmalar omborxonada mavjud bo'lganda taqdim etiladi. Abonentlarga avval ishlatilgan, texnik talablarga javob beradigan va telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanishga yaroqli bo'lgan abonent qurilmasi taqdim etilishi mumkin. Kompaniya qurilmalar taqdim etilishini to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.2. Abonent qurilmasini keyinchalik qayta sotish kabi tijorat maqsadlarida Aksiyada ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi.

7.3. Kompaniyaning shu kabi Aksiyalarida avval ishtirok etgan va Aksiyaning barcha shartlarini bajarmagan abonentlarning Aksiya doirasida avval berilgan abonent qurilmasining narxi to'liq qoplanmaguncha, mazkur Aksiyada ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. Abonent taqdim etilgan abonent qurilmasini yaxshi holatda saqlash, qurilmadan foydalanish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan tavsiyalar asosida foydalanish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Abonent qurilmasidan namlik yuqori bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari tushadigan, ventilyatsiya teshiklari to'sib qo'yilgan xonalarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

7.5. Aksiyada ishtirok etish orqali Abonent Aksiya shartlari bilan roziligini, shuningdek, kelgusida Kompaniyaning rasmiy veb-saytida Aksiya shartlariga kiritiladigan o'zgartirishlar bilan keyinchalik mustaqil ravishda tanishib chiqishga roziligini bildiradi.

7.6. Kompaniya Aksiya shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega va bunday holda kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida tegishli ma'lumotlar oldindan rasmiy veb-saytga joylashtiriladi.

7.7. Kompaniya Aksiya doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarini/zararlarini sug'urtalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish huquqiga ega.